

## AHOLINI FAVQULODDA VAZIYATLARGA MA'NAVIY VA RUHIY TAYYORLASHDA TARG'IBOT TASHVIQOTNING ROLI

Karimov Hamraqul Sattarovich

Jizzax viloyati favquloda vaziyatlar boshqarmasi,  
Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1417616>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada aholini favqulodda vaziyatlarga ma'naviy va ruhiy tayyorlashda targ'ibot tashviqotning roli haqida so'z yuritilgan va tahlil qilingan.

*Kalit so'zlar:* favqulodda vaziyatlar, ma'naviy va ruhiy tayyorlik, aholi, xulq-avtor.

### THE ROLE OF PROPAGANDA IN THE SPIRITUAL AND SPIRITUAL PREPARATION OF THE POPULATION FOR EMERGENCIES

*Abstract.* This article discusses and analyzes the role of propaganda in the moral and spiritual preparation of the population for emergency situations.

*Key words:* emergency situations, moral and spiritual preparedness, population, behavior.

### РОЛЬ ПРОПАГАНДЫ В ДУХОВНОЙ И ДУХОВНОЙ ПОДГОТОВКЕ НАСЕЛЕНИЯ К ЧС

*Аннотация.* В статье рассматривается и анализируется роль пропаганды в духовно-психической подготовке населения к действиям в чрезвычайных ситуациях.

*Ключевые слова:* чрезвычайные ситуации, морально-духовная готовность, население, поведение.

Favqulodda vaziyatlar sharoitida ma'naviy-ruxiy tayyorgarlikning mohiyati. Ma'naviy so'zi «Kishining ichki dunyosiga oid» degan ma'noni bildiradi. Bu ijtimoiy ongning bir shakli bo'lib, odamlar yurish turishda, muomalada amal qiladigan tamoyillar, me'yordarning majmuidir. Bu me'yorlar odamlarning bir-biriga va insoniy birlikning turli shakllari (oila, mexnat jamoasi, millat, umuman jamiyat)ga muayyan munosabatlarning ifodasidir.

Hatti-harakatlarga va ularning sabablariga ma'naviy (axloqiy) baxo berish ma'naviyatning o'ziga xos bir jixatini tashkil etadi. Jamiyatda, aholining muayyan bir qatlami orasida yaxshilik va yomonlik xaqida, burch, vijdon, vijdonsizlik to'g'risida tashkil topgan tasavvur bunday baxo berishga asos bo'lib jamiyatning muayyan aholi qatlaming shaxsga bo'lган talablari mana shu tushunchalarda ifoda topadi.

Buning huquq tushunchasidan farqi shundaki, ma'naviyat tamoyil va me'yorlari davlat qonunchiligidagi qayd etib qo'yilmay, ularga rioya qilish qonunga emas, balki vijdonga va jamoatchilik fikiriga asoslangan bo'ladi. Mana bunday bir misolni olaylik. Maxalladagi bir oilaning uyi yonib ketdi. Nima qilishadi? Hashar qilib, pul yig'ib, jabrlangan oilaga yordam qilib, o'sha uyni tiklab berishadi.

Xush, qaysi qonunda albatta hashar qilinsin, deb yozib qo'yilgan? Bunday qonun yo'q, bo'lishi ham mumkin ham emas. Bu odamlarning ko'nglida, ularning qalbida yozilgan.

Ma'naviyat xulq-avtor va urf-odatlarda namoyon bo'ladi. Avloddan avlodga o'tib boraveradigan axloqiy xulq-atvorning barqaror, mustaxkamlanib qolgan me'yorlari ma'naviy an'analarni tashkil etadi.

Jamlanib, shaxsning axloqiy ongini hosil qiladigan ma'naviy ishonch, his va odatlar ham ma'naviyatning tarkibiga kiradi. Ma'naviyat odamlarning xatti-xarakatlarida namoyon bo'ladi. Odamlarning ma'naviy xulq-avtori ong bilan faoliyat birligida tavsif topadi.

Bularning hammasi jamlanib, ma'naviyat omilini tashkil etadi. Ma'naviy omil-bu mamlakat aholisining ruhiy imkoniyatlari bo'lib, bunday imkoniyatlari shu aholining ma'naviy yetuklik darajasi bilan, onglilik darajasi bilan belgilanadi hamda ijtimoiy, iqtisodiy va mudofaa maqsadlariga erishish omiliga aylanishi mumkin bo'ladi.

Fuqaro muhofazasidagi ma'naviy tayyorgarlik-bilim oluvchilarda fuqaro muhofazasiga oid vazifalarni bajarish mamlakat, xalq oldidagi burch ekaniga ishonchni tarbiyalash, bu tinchlik va harbiy haraktlar vaqtlaridagi o'z vazifalarini vijdonan bajarishga, shunday vaziyatlardagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'zini tayyorlash zarurligini tushunish, ruhiy qiyinchiliklarga chidash ruhida tarbiyalashdir.

Murakkab sharoitda istalgan kishining hayot uchun xavfli vazifani bajarishga tayyor ekaniga ishonib ish tutib bo'lmaydi. «Hech nimadan qo'rqligida» odam bo'lmaydi. Hamma gap sarosima hissini yengib o'tish uchun, to'g'ri qarorga kelib, harakat qila boshlash uchun kerak bo'ladi. Shoshilinch vaziyatga tayyorgarlik ko'rgan odamda bu anchagina tez bo'ladi. Tayyorgarligi yo'q kishida esa harakatsizlik, xovliqish uzoq vaqt saqlanib turadida psixika buzilishini kuchaytirib yuboradi.

Favqulodda vaziyat xavfli va o'zgaruvchan bo'ladi, odatdagi uyqu, dam olish va ishslash navbatlanishi bo'lmaydi. Vazifalarni kecha-kunduzning turli vaqlari, yomon ob-havo, axborot yetarli bo'lмаган sharoitda bajarishga to'gri Xavf-xatar, ortiqcha ishslash, odam qurbi darajasidan chiqib ketish, yetishmovchilik, yechiladigan vazifalarning murakkabligi, bor kuchni nixoyatda zo'r berib ishlatish odam faoliyatini qiyinlashtirib, undan ko'zda tutilgan maqsadga erishishga to'sqinlik qilishni turli ruhiy xolatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Kuchli tovush va shovqinlar uzoq vaqt ta'sir etib turishi asab tizimi charchashi va xatto buzilishining sabablaridan bir hisoblanadi. Surunkali shovqin boshni aylantiradi, og'ritadi, qurish quvvatini kamaytiradi, xotirani susaytiradi, tushkunlikka soladi, xarakatni sekinlashtirib qo'yadi. Muskulga qattiq zo'r berish ham stress (qattiq hayajon) xolatini keltirib chiqarishi mumkin. Charchash odatda odamning faoligini kamaytiradi, jumladan e'tiborni susaytiradi, salbiy xis-tuyg'ularni kuchaytiradi.

Favqulodda vaziyatlardagi xatti-xarakatlarga tayyorlash soxasida bir necha misollar keltiramiz.

**«O'tdan qo'rqligida»ni yengish.** Odam sakrab o'tadigan kenglikda uzun zovur qaziladi.

Unga ishlatib bo'lingan solyarka yoki boshqa yonadigan suyuklik to'ldirilib, yoqib yuboriladi. Olov devor hosil bo'lib, ta'lim olayotganlar muxofaza kiyimi kiyib yoki muxofaza niqobida sakrab, shu olov devor ustidan o'tadilar. Bunda, har ehtimolga qarshi, olov devorining ikki tomonidan suv shlanglari ushlagan odamlar turadilar.

**«Balandlikdan qo'rqligida»ni yengish.** Xodalardan to'rt qavatlari uy maketi quriladi.

Balandlikda xoda ustida mashq qilinadi. Mashq qilayotganlar xavfsizligini ta'minlash uchun ular beliga xavfsizlik kamarlari bog'lab qo'yiladi. Albatta, xoda ustida yurayotganlarning tuyg'ulari dastlab unchalik yoqimli bo'lmaydi.

Yoki ta'lrim oluvchilar baland minoraga chiqib, undan qutqarish arqoni yordamida pastga tushadilar.

**«Suvdan qo'rqish»ni yengish.** Suvli to'siq ustiga uzunligi 100 m li tebranma ko'priq quriladi. Ta'lrim oluvchilar shu ko'priq ustidan yurib, suv to'siqdan o'tadilar.

Tayyorgarlikni bunday usulda olib borish odamlarda Favqulodda vaziyat yuz berganda esankirab qolmaslik, chidam va mardlik ko'rsatish hissini shakllantiradi.

Mashg'ulot va o'quv mashqlarini sutkaning turli vaqtlarida, murakkab ob-havo sharoitida, zaharlanish zonalarida olib borib odamlarni qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatish, ma'naviy-ruhiy hislatlarni shakllantirish mumkin.

Ishlab chiqarishda band bo'limgan aholining ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi muammosi million-million kishilarga tegishli muammodir. Viloyatlar, shaharlar va tumanlar fuqaro muhofazasi boshliqlari, Favqulodda vaziyatlar boshqarma va bo'limlari bu mavzuga ko'proq e'tibor berishlari, ishlamayotgan aholini Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishdagi ma'naviy-ruhiy chiniqtirishga yordam beradigan tadbirlarga jalb qilishlari kerak.

Bunday tadbirlarga birinchi galda kimyoviy xavfli ob'ektlar yaqinida hamda toshqin, suv bosish va sel kelish xavfi, boshqa xatarlar bor joylarda yashab turgan aholi jalb etilishi kerak.

**Targ'ibot.** Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni targ'ib etishdagi asosiy vazifalar qanday, bunda targ'ibot nimalardan iborat bo'lishi kerak?

**Birinchi vazifa.** Tinchlik davrida va harbiy harakatlar vaqtida, Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishi mumkinligini va ular naqadar xavfli ekanini tushuntirish.

**Ikkinci vazifa.** Fuqaro muhofazasining roli ortib borayotganini, Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish xaqidagi davlat xujjalarning mazmunini, aholining fuqaro muhofazasiga oid huquqlari va vazifalarini tushuntirish.

**Uchinchi vazifa.** Aholiga Favqulodda vaziyatlarda harakat qilishni o'rgatishga hissa qo'shish.

**To'rtinchi vazifa.** Fuqaro muhofazasi ilg'or tajribasini keng targ'ib qilish.

**Beshinchi vazifa.** O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi tarixi va an'analarini tizimli targ'ib qilish.

Favqulodda vaziyatlar yuz berishi ehtimoli borligini va xavf darajasi to'g'risida aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish kerak. Biroq, bunda odamlarni qo'rqiqtmaslik, balki bu xavfni unutmaslik, Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda muxofazalanishga tayyor turishga da'vat etmoq kerak. Shunda Favqulodda vaziyatlar oqibatida yetadigan zararlar eng kam darajada bo'ladi.

## REFERENCES

1. Yo'ldashev, A., & Jalilov, A. (2022). Favqulodda va Ekologik ofat holatlarida korxonalar boshqaruvi. eurasian journal of social sciences, philosophy and culture.
2. Jalilov, A. (2022). FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGINING FAVQULODDA VAZIYATLARDA HARAKAT QILISH VA BOSHQARISH MILLIY MARKAZI MANSABDOR SHAXSLARI FAOLIYATIDAGI MUAMMOLI MASALALARINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH MODELI. Science and innovation, 1(C7), 286-294.

3. Кобулова, Н. Ж., & Нарзиев, Ш. М. (2021, December). ХОДИМЛАРНИНГ МЕХНАТИНИ МУХОФАЗА ҚИЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ.